

O‘ZBEKCHA MATNLARNI OVOZLASHTIRISH DASTURINI ISHLAB CHIQUISHDA LINGVISTIK TA‘MINOT

Nazira Yangibayeva

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada dasturlarning o‘zbek tilida yaratilishi uchun texnik ta‘minotdan tashqari lingvistik ta‘minotning zarurligi, o‘zbekcha matnlarni ovozlashtirish ishlab chiqishda ham lingvistik ta‘minotning o‘rni haqida atroflicha so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompyuter dasturi, ovozlashtirish, logografemalar, tinish belgilari, lug‘at, dasturiy ta‘minot.*

Kompyuter dasturlari bilan ishlash bugungi kunda insonlarning birlamchi ehtiyojiga aylanib bormoqda. Bu jarayonda ularning o‘zbek tilidagi variantini ishlab chiqish shu tilda so‘zlashuvchilarning dasturdan foydalanish imkoniyatini oshiradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Dasturlarning o‘zbek tilida yaratilishi uchun esa, eng avvalo, texnik ta‘minotdan tashqari lingvistik ta‘minotni ham mukammal ishlab chiqish talab etiladi. O‘zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturini ishlab chiqishda unga lingvistik ta‘minot tayyorlash jarayonida tadqiq etish zarur bo‘lgan ayrim masalalar ham borki, ularni quyida tahlil etamiz.

Logografemalar. O‘zbek tilida son so‘z turkumiga oid so‘zlar yozuvda ma‘lum belgilar bilan ifodalanadi. Bunday belgilar logografemalardir.

Logografemalarning bu yozuv tipi tushunchalarni yoki tushuncha nomi bo‘lgan so‘zlarni yozuvda ifodalashga asoslanadi. Bunday belgilar aslida ideografik (semasiografik) yozuv tipiga mansub birliklar sanaladi, ammo ulardan fonografik yozuv tarkibida ham foydalaniladi. Yozuv tizimining murakkab optik-grafik sistema ekanligi ham shundan¹.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda logografemalar 2 turga bo‘linadi (bunda odatda raqam grafemalar nazarda tutiladi):

1. Arab raqamlari: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 100, 10 000, 100 000, 1000 000 000 kabi.

2. Rim raqamlari: I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, XI, XII, XIII, XIV, XV, XVI, XVII, XVIII, XIX, XX, XXX, XL, L, LX, LXX, LXXX, XC, C, CD, D, DC, CM, M, MC, MD kabi.

Bu belgilar I (bir), V (besh), X (o‘n), L (ellik), C (yuz), D (besh yuz), M (ming) kabi bir necha belgilarning kombinatsiyasiga asoslangan.

¹ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiyoti tili. T.: Talqin, 2005. B – 98.

O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturi logografemalarni o'qishi uchun yuqorida keltirilgan arab hamda rim raqamlarini dasturning lingvistik ta'minotiga ham yozma, ham ovozli tarzda kiritish lozim bo'ladi. Shuningdek, bu belgilar son so'z turkumi doirasida o'rganilgani uchun ham sonning grammatik ma'no turlarini o'rganib chiqish va ularning qay tarzda dastur ta'minotiga kiritilishini ko'rib chiqishimizga to'g'ri keladi. Son grammatik ma'nosiga ko'ra miqdor va tartib sonlarga tasniflanadi. Miqdor son ham o'z ichida sanoq, dona, chama, jamlovchi, taqsim sonlarga bo'linadi. O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturi sanoq, dona, chama, jamlovchi sonlarni o'qish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Lekin taqsim sonning turlari bo'lgan kasr hamda aralash sonlarni o'qishda muammo yuzaga keladi: $\frac{2}{5}$ (beshdan ikki yoki ikki taqsim besh), (uch butun o'ndan ikki). Dastur kasr va aralash sonlarni o'qishda taqsim, butun kabi so'zlarni avtomatik tarzda kasr chizig'i yoki butunni anglatuvchi ifoda uchun qo'llay olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun esa kasr chizig'i kelgan o'rinlarda taqsim so'zini va aralash son kelgan o'rinlarda butun va o'ndan, yuzdan, mingdan, o'n mingdan va h.k. so'zlarni qo'llash uchun ularni lingvistik ta'minotga kiritish lozim bo'ladi.

Sonlar bilan yuzaga keladigan yana bir masalalardan biri tartib sonlarning talaffuzi bilan bog'liq. Ma'lumki, tartib sonlar yozuvda son bilan ifodalanganda bunday sonlardan so'ng chiziqcha qo'yiladi va shu chiziqcha talaffuzda $-(i)nchi$ tarzida aytiladi: 5-sinf, 6-qator, 17 uy (beshinchi sinf, oltinchi qator, o'n yettinchi uy).

O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturi tartib sonlardagi chiziqchani juft sonlar, juft so'zlardagi defisdan farqli o'qishi uchun bu dasturga lingvistik ta'minot ishlab chiqish mobaynida bunday masalalarga e'tibor qaratish va muayyan qoidalarni kiritish muhim deb o'ylaymiz.

Nutqimizda sanoq sonlar hisob so'zlari bilan birga qo'llaniladi. Ayrim hisob so'z turlari yozuvda qisqargan shaklda qo'llaniladi.

- 1) Uzunlik o'lchovlari: metr (m), kilometr (km), detsimetr (dm), santimetr (sm), millimetr (mm);
- 2) Yuza o'lchov birliklari: kvadrat kilometr (kv.km), kvadrat metr (kv.m), kvadrat detsimetr (kv.dm), kvadrat santimetr (kv.sm), gektar (ga), ar (a);
- 3) Og'irlik o'lchov birliklari: tonna (t), sentner (s), kilogramm (kg), gramm (g), milligramm (mg);
- 4) Hajm o'lchov birliklari: kub metr (kub.m), kub detsimetr (kub.dm), kub santimetr (kub.sm), litr (l), gektolitr (gl);
- 5) Vaqt o'lchov birliklari: soat (s), minut (min.), sekund (sek.);
- 6) Elektron texnika xotira sig'imining o'lchov birliklari: bayt (b), megabayt (mb), gegabayt (gb).

O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturi qisqargan shaklda matnda qo'llanilgan hisob so'zlarini aslidek berilgan son bilan birga o'qib berishi uchun dastur ta'minotiga ularning audio formatda tayyorlangan ro'yxati kiritilishi talab etiladi.

Tinish belgilari. Matnda eng asosiy qo‘llaniladigan belgilar – bu tinish belgilari. Tinish belgilari gap va nutqning mazmun-mundarijasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan fonetikfonologik vositalarni (ko‘tariluvchi ohang, pasayuvchi ohang, to‘lqinli ohang, sanash ohangi, pauza kabi supersegment birliklarni) yozuvda ifodalash uchun qo‘llanadi.

Bunday belgilar quyidagi vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi:

- a) Ijtimoiy aloqani (fikir almashuvi jarayonini) yozuvda to‘g‘ri ifodalash uchun;
- b) Maqsad, mazmun yoki ma‘noni, ularning o‘ziga xos “rang” va “tus”larini yozuvda aniq ifodalash uchun;
- c) Gapning tarkibini hamda shu tarkib elementlari (komponentlari) o‘rtasidagi grammatik-semantik munosabatlarni ifodalash uchun;
- d) Yozma nutqning ixcham va ravonligini ta‘minlash uchun;
- e) Yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalash uchun»².

O‘zbek tilshunosligida tinish belgilarining quyidagi 10 ta turi grafikaning markaziy sistemasiga kiritiladi:

Nuqta (.)	Vergul (,)
So‘roq belgisi (?)	Ikki nuqta (:)
Undov belgisi (!)	Tire (–)
Nuqtali vergul (;)	Qavs (),[]
Ko‘p nuqta (...),	Qo‘sh tirnoq (“ “)

Bu tinish belgilari matnda so‘zlarning, gaplarning ohangini belgilaydi. O‘zbekcha matnlarni ovozashtirish dasturi gaplarni, gap tarkibidagi so‘zlarni, birikmalarni tegishli ohangda o‘qishi uchun dastur lingvistik ta‘minotini ishlab chiqishda bu masalalarga e‘tibor qaratish zarur. Dastur tabiiy talaffuz intonatsiyasini hosil qilib bera olmasligi mumkin, lekin kerakli o‘rinlarda qo‘llanilgan tinish belgilarini nomi bilan o‘qib berishi masalaning yechimi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduhamidova L. Tilshunoslikning yangi yo‘nalishi: kompyuter lingvistikasi. - Toshkent,2015.
2. Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. T., 2015
3. Адилова С. Ўзбек тилини ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш. -Тошкент, 2006
4. Baker, M. (1993) ‘Corpus linguistics and translation studies: implications and applications’ // Korpus lingvistikasi va tarjimashunoslik
5. Йўлдошев Б. Компьютер лингвистикаси. - Самарканд, 2009.
6. Қурбонова Ф. Компьютер луғатлари: тезаурус. -Тошкент, 2014

² Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б. 7-8.

European science international conference:

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

7. Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo'llanma). - Toshkent: ToshDPU nashri, 2007. - 74 b

